

TURKISTONDAGI RUS TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUVCHILARNI JISMONIY RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Xasanov Abduraxim¹

¹Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Maqolada XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida Turkistonda rus tilida o'qitadigan maktablarda jismoniy tarbiya va sportning ahvoli, o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish masalalari yuzasidan ko'rilgan choralar, o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning o'рни va ahamiyati, uning ijtimoiy mohiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, ta'lim-tarbiya, aqliy tarbiya, sport anjomlari, ma'naviy tarbiya, ekskursiya, xalq o'yinlari.

Kirish

Ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom insonni tarbiyalashning muhim vositasiga aylangan sport olimpiya g'oyalari va olimpiya qadriyatlarini keng targ'ib etishga xizmat qilmoqda. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Zero, jismoniy tarbiya pedagogik jarayon hisoblanib, u keng qamrovli ta'lim-tarbiya, sog'lomlashtirish va mehnatga tayyorlash kabi muhim jarayonlarni o'z ichiga oladi. Jismoniy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati esa uning aqliy, estetik va mehnat tarbiyasi bilan bog'liqligini hisobga olish zarurligidadir.

Ibtidoiy jamoa davrlaridan boshlab insonlar jismoniy tarbiyaga e'tibor qarata boshlaganlar. Dastlab u jismoniy mashqlar, turli o'yinlar, mehnat jarayonlari, ovchilik, harbiy harakatlarga o'xshatilgan musobaqalar va sinovlar shaklida mavjud bo'lgan, turli marosimlarni aks ettirgan. Keyinchalik yoshlarni qilichbozlik, chavandozlik, kamondan otish, yakkama-yakka kurash mahoratiga o'rgatish jamiyatning asosiy vazifalaridan biriga aylana borgan

Uyg'onish davriga kelganda esa Yevropada jismoniy tarbiyaga oilaviy tarbiya va maktabdagi pedagogik jarayonning muhim qismi sifatida qarala boshlandi. XVIII-asrda Germaniyada paydo bo'lgan

"insonparvarlik va yaxshi xulq maktablari" — filantropinlar jismoniy tarbiyaning shakl va uslublarining takomillashuviga olib keladi. Gimnastika mashqlari maktab dasturlaridan mustahkam o'rin oladi. XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida Fransiya, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda jismoniy tarbiyaning milliy tizimlari tarkib topdi.

Dunyo hamjamiyatining uzviy bir qismi hisoblangan bizning yurtimizda ham azal-azaldan jismoniy tarbiya xalqlarimiz tilida badan tarbiya deb nomlanib, sog'liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaning dir qismi hisoblangan. Jamiyatda badan tarbiyaning darajasini bildiruvchi ko'rsatkichlar – aholining jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi, aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan birga qo'shib olib borilgan.

Materiallar va metodlar

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonida bosib olingandan so'ng bu yerda rus tilida so'zlashuvchi millatlar uchun erlar va qizlar gimnaziyalari ochildi va ularda jismoniy tarbiya berila boshlandi. Natijada 1890-1900-yillarda gimnaziyalarda jismoniy tarbiya mashqlarini o'tkazish ancha jonlandi. Harbiy maktab va bilim yurtlarida gimnastika, qilichbozlik, otish va turli o'yin mashg'ulotlari tashkil qilinib, u asta-sekin

mahalliy millat yoshlari orasida ham tarqala boshladi. Bu paytlarda maxsus o'quv yurtlari, harbiy xizmat joylarida gimnastika, laun-tennis va boshqa turlardan kichik-kichik musobaqalar o'tkazilib kelinayotgandi.

O'zbekiston milliy arxivi materiallariga suyanadigan bo'lsak, Turkiston o'lkasida 1910-yilda "Потешные полки"- "Ko'ngilochar, xursandchilik, ko'nli shod polklar" yoki "Vaqtichog'lik polklari" deb nomlanuvchi qismlar tashkil qilindi. Bu polk yarim sport va yarim harbiy yo'nalishdagi tashkilot bo'lib, maqsad yoshlar kuch-g'ayratini harbiy sohaga yo'naltirish, ularni din, podshoh va Vatan uchun xizmat qildirishga qaratilgandi.

Yuqoridagi kabi jiddiy va zaruriy vazifalarni bajarish va turmushga tatbiq etish uchun Rossiya Xalq maorifi vazirligining o'quv okruglari bo'yicha noziri general-leytenant Glazov 1904-yil 10-iyunda o'quv okruglari nazoratchilariga 18066-sonli xat yuborib, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi masalasini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida bir qancha tadbirlarni amalga oshirishda buyurdi. Sal avvalroq, aniqrog'i, 1900-yil 2-avgust kuni barcha maktablarga 20185-sonli buyruq yuborilib, o'quvchilarning yozgi ta'til vaqtida ustozlari rahbarligida ta'limiy sayohatlarini tashkil etish va bu sayohatlar ularning ma'naviy va jismoniy rivojlanishida muhim rol o'ynashi haqida so'z borgandi.

Bunday sayohat va ekskursiyalardan yetimlar, kam ta'minlangan oila bolalari bebahra qolmasliklari uchun va bunday ta'limiy manbadan foydalanib qolishga rag'batlantirish sifatida maxsus fondlardan, alohida ajratilgan pullardan yoki moddiy yordam yo'li bilan va homiylik mablag'laridan pul topib, kambag'allar bolalarini ham asosiy ro'yxatga qo'shish va sayohatga olib borish zarur. Mazkur hujjatda Rossiya imperiyasi xalq maorifi vazirligi 1902-yil 15-avgustda 21600-sonli o'ta jiddiy hujjatni tayyorlab, davlatdagi organlari nozirlariga jo'natadi. General-leytenant Glazovning fikricha, Xalq maorifi vazirligining sal avvalroq, qabul qilingan, 1902-yil 15-avgustdagi 21600-sonli

buyrug'ida maktablarda o'quvchilar ta'limi sifatini oshirish, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini uchun ko'maklashish va bu uchun barcha choralarni ko'rish ta'kidlangan edi.

Bu ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarni maktabdalik chog'ida gigiyena qoidalariga to'liq amal qilishga o'rgatib, turli jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish oxir-oqibatda o'quvchilarni kundalik odati va turmush tarziga aylanadi. Bu holat esa o'quvchilar asab-mushak tizimida yetarli darajada energiya zaxirasini hosil qilish, ularda chidamlilik sifatlarini tarbiyalash, kelishgan qad-qomat, chaqqonlik, yengil harakat, bejirimliklik, xushfe'llik, topqirlik, o'ziga bo'lgan dadil ishonchni shakllantiradi.

Xalq maorifi vazirligining 1902-yil 20-sentyabrdagi 25985-son, 1903-yil 12-martdagi 19106-son va 1903-yil 29-iyundagi 20152-son farmoyishlarida yozgi ta'til vaqtida tabiati go'zal va havosi toza joylarda o'quvchilar uchun vaqtinchalik turar-joylar tashkil qilish va u yerlarga o'quvchilarni joylashtirish tavsiya etildi. Yaratilgan bunday sharoitlar o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi hamda ularning ma'naviy yuksalishi uchun qulay imkoniyatlar tug'diradi va o'quvchilarning sog'ligini tiklashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida sanab otilgan tadbirlarni o'tkazish maqsadga muvofiqligini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash joizki, tizimdagi ta'lim muassasalari rahbarlari bundan buyon ham o'zlaridan lozim bo'lgan barcha ishlar va vositalarni ishga solib, o'quvchilarning sog'ligini yaxshilash, jismoniy quvvatini oshirishga harakat qilishlari kerak. Ishonchimiz komilki, ta'lim sohasining mas'ullari vazirlikning topshiriqlarini sidqidildan, vijdonan bajaradilar va o'quvchi yoshlarga astoydil g'amxo'rlik qiladilar.

General-leytenant Glazovning mazkur xatida yozgi va Rojdestvo bayrami vaqtidagi ta'til kunlarida o'quvchilarning Rossiya hududlariga sayohatini tashkil etish zarurligi ta'kidlangan. O'quvchilar tarixiy manzilgohlarga, qadimiy yodgorliklarni ko'rishga, aziz-avliyolar maqbaralariga ziyorat qilishlari, muzeylar eksponatlari

bilan tanishishari, zavod va fabrikalarda ishlab chiqarish jarayonini o'z ko'zlari bilan ko'rishsa, ularning ma'naviyati boyiydi va bu o'quvchilar tarbiyasi uchun juda foydali bo'ladi. Bunday sayohat va ekskursiyalardan yetimlar, kam ta'minlangan oila bolalari bebahra qolmasliklari uchun va bunday ta'limiy manbadan foydalanib qolish uchun rag'batlantirish sifatida maxsus fondlardan, alohida ajratilgan pullardan yoki moddiy yordam yo'li bilan va homiylik mablag'laridan pul topib, kambag'allar bolalarini ham asosiy ro'yxatga qo'shish va sayohatga olib borish zarur.

Albatta, bu sayr va tomoshalar o'quv jarayoniga salbiy ta'sir etmasligi uchun tadbirlarni havo iliq kunlari, erta bahorda va kuzning boshida tashkil etish lozim. O'quvchilarning sayr va tomoshalariga o'qituvchilar jiddiy qarashlari va mas'uliyat bilan yondashishlari, ayniqsa, o'quvchilarni o'yinlari, xo'r qo'shiqlari va musiqalariga rahbarlik qilib, o'rgatishlari zarur.

Ta'kidlash joizki, bu kabi sayr-tomosha o'quvchilarda juda yaxshi taassurot qoldiradi, ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi, maktabni yagona bir oilaga aylantiradi va maktabdagi ta'lim va tarbiya ishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalq maorifi vazirligining 1902-yil 15-avgustdagi 21600-sonli farmoyishida o'quvchilarning qayiqni boshqarish, suvda suzish va cho'milish kabi bolalar dimog'ini chog' qiladigan hamda ko'ngil ochar o'yinlarga alohida e'tibor qaratish zarur va bu ishlar yoshlarni jismoniy kamolotida muhim omil bo'lib xizmat qilishi shubhasiz ekanligi ta'kidlandi. Chunonchi, bolalarni suzishga o'rgatish juda zarur bo'lib, suvda sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarni asosiy sababi ham o'quvchilarning suzishni yaxshi bilmasligi va o'zini suvda yaxshi eplay olmasligi kabi oddiy holatlarda yuz bermoqda.

Katta shaharlarda maktab rahbarlari mahalliy rahbarlar bilan shahar va qishloq kengashlari (zemstvo) faollari ishtirokida yozgi ta'til vaqtida sog'ligi zaif va nimjon bolalar, kam ta'minlangan oila o'quvchilari uchun shahar chetida qulay joy topib,

sanatoriy ochsinlar yoki maxsus bino topib bolalarni yotqizsinlar. Yoki bo'lmasa mas'ullar nimjon, kasalmand va sog'ligi zaif bolalar uchun dala hovli yoki ijaraga uy olib, ularni joylashtirishlari zarur va bu bolalar ko'p vaqtini ochiq havoda o'tkazishlarini qattiq nazorat qilishlari shart. Shunday qilish kerakki, bolakaylar susaygan sog'liqlarini tiklab, mustahkamlab olishsin. Ular uchun tizib qo'yilgan chillaklarni urib chiqarish o'yini - gorodki (tizilgan chillaklarni urib chiqarish o'yini) tashkil qilsinlar, cho'milish joylari ochib, qayiq olsinlar, bu zaif bolalarga turli o'yinlar o'rgatish zarur. Shu bilan birga, ular uchun uncha katta bo'lmagan kutubxona ochsalar juda go'zal ish bo'lar edi.

Bu yerga kelgan o'quvchilar uchun qat'iy tartib o'rnatish, ular to'yimli va kuchli ovqatlar bilan ta'minlanishi kerak. Vrach esa haftada bir necha marta o'quvchilarni tekshirishi, yoz boshi va oxirida ularni og'irligini tortib ko'rish va daftarga yozib borishi zarur. Bu tadbir bolalarni jismoniy rivojlanishi haqida qimmatli ma'lumotlarni berishi aniq bo'ladi.

Yuqoridagi masalalar ijrosi yuzasidan material yig'ish, ta'lim muassasasida faoliyat yilining 1-dekabridan kechiktirmasdan hisobot tayyorlash, o'quvchilar bilan amalga oshirilgan sayohat, sayr, tomosha, ekskursiya hamda o'quvchilar sog'ligini mustahkamlash yuzasidan amaliy ishlar haqida hisobot tayyorlash va topshirish buyurildi.

Natijalar va muhokama

Endi Turkistondagi ayrim ta'lim muassasalari haqida hikoya qilamiz. Verniy shahar (1867-1921-yillarda Olmaota shahrining ruscha nomi) erkaklar gimnaziyasi harbiy gimnastika o'qituvchisi, kapitan A.Kiselevning 1907-1908 o'quv yili uchun gimnastika va harbiy saf o'quv darsining jarayoni va mashqlar metodikasi haqidagi hisobotini beramiz. Binobarin, A.Kiselev gimnaziya o'quvchilarini hammasini oltita guruhga bo'lgan va har bir sinf bilan alohida mashqlar o'tkazgan.

Xususan, birinchi guruhda VI-VII-VIII-sinflarning 94 nafar, ikkinchi guruhda V-sinfning 49-nafar, uchinchi guruhda III-IV-sinflarning 79-nafar o'quvchilari, to'rtinchi guruhda II-sinfning 59-nafar, beshinchi guruhda I-sinfning 38-nafar, oltinchi guruhda tayyorlov sinfining 46-nafar o'quvchilari guruhlarga bo'linib jami bo'lib 365 nafar o'quvchi o'qituvchi rahbarligida gimnastika mashg'ulotlarida qatnashgan.

Gimnastika mashg'ulotlari 4-sentyabrda boshlanib, 2-iyun kuni yakunlangan va to'qqiz oy davomida olib borilgan. Mashg'ulotlar asosan 40 daqiqalik katta tanaffusda, ochiq havoda o'tkazilib, haftasiga bir guruhda bir marta bo'lgan. O'quv yili davomida 1-2-guruhlar 14 tadan, uchinchi guruhda 15, marta, to'rtinchi guruhda 1 marta, beshinchi guruhda 16, 6-guruhda 13 ta mashg'ulotlar alohida zal bo'lmagani uchun ochiq havoda o'tkazilgan.

Havo sovuq yoki yog'inli bo'lgan kunlari gimnastika mashqlari o'tkazilmagan. 1, 2, 3-guruhlarda esa mashg'ulotlar ikki marta rota bilan o'tkazilib, o'quvchilar harbiy safda yurishni mashq qildilar. Gimnastika mashg'ulotlari doim ochiq maydonda yoxud o'quv binosining peshayvonida o'tkazilgan. Qish kunlari esa havo sovuqligi va issiq joy yoki xona yo'qligi uchun gimnastika mashg'ulotlari o'tkazilmagan.

Gimnaziya tashqarisidagi maydon va o'quv binosi peshayvoni havo issiq kularida alohida guruhlarda mashq o'tkazish uchun yetarli bo'ldi. Hovli maydonida 200 nafar o'quvchi bilan birga gimnastika mashqlarini va saf maydonida 200 nafar o'quvchi bilan birga gimnastika mashqlarini va saf mashg'ulotlarini harbiy rota tarkibidagi kabi birgaligida bemalol o'tkazsa bo'ladi.

Mashqlarda qo'zg'atish va ko'tarib yurish oson bo'lgan va o'quvchilar otishi uchun yog'och nayza, charm va rezina to'plar, cho'yan gantellar, yog'och va yonma-yon joylashgan bruslardan foydalandilar.

Yerga mahkamlab qo'yilgan, qo'zg'atib bo'lmaydigan va qimirlamaydigan asbob-anjomlar gimnastika shaharchasining asosini tashkil etgan.

O'quv yili davomida har bir guruhda, jumladan, birinchi va ikkinchi guruhlarda

oddiy va murakkab gimnastika mashqlarini, gimnastik yugurish, to'p bilan turli o'yinlar, parallel bruslarda va gimnastika asboblari bilan imkon darajasida gimnastika mashqlari ijro qilindi. Uchinchi guruhda esa barcha oson va murakkab gimnastik mashqlar, to'p bilan o'yinlar, gantel bilan mashqlar bajarildi, bruslarda uncha qiyin bo'lmagan mashqlar o'rganildi.

4-guruhda barcha eng oson oddiy va ba'zi murakkab gimnastik mashqlar, jumladan, harbiychasiga teng qadam tashlash, gantelni yuqoriga uch marta ko'tarish, brusda oson va yengil mashqlarni bajarish va gimnastika anjomlari bilan oddiy mashqlarni bajarishni o'rgandilar. 5-guruhda esa oddiy va sodda gimnastik mashqlar, harbiychasiga teng qadam tashlash, brusda mashqlar qilish, pog'onalarga chiqish, langarcho'p bilan mashq, arqonga osilish va halqalarda mashqlar qilish bilan shug'ullandilar. 6-guruhda gimnastika mashqlari bilan dastlabki tanishuv, to'p bilan o'yinlar, yog'ochga tirmashib chiqish, zinalardan ko'tarilish kabi mashqlarni bajarishga o'rgatildi tayoq, tirmashib chiqish uchun ikkita arqon, ikkita osib qo'yilgan halqa va ikki uchiga arqon bog'lab osib qo'yilgan tayoq (trapetsiya)dan foydalanib, gimnastika mashqlari o'tkazilgan.

O'quv yili davomida har bir guruhda, jumladan, birinchi va ikkinchi guruhlarda oddiy va murakkab gimnastika mashqlarini, gimnastik yugurish, to'p bilan turli o'yinlar, parallel bruslarda va gimnastika asboblari bilan imkon darajasida gimnastika mashqlari ijro qilindi. Uchinchi guruhda esa barcha oson va murakkab gimnastik mashqlar, to'p bilan o'yinlar, gantel bilan mashqlar bajarildi, bruslarda uncha qiyin bo'lmagan mashqlar o'rganildi.

4-guruhda barcha eng oson oddiy va ba'zi murakkab gimnastik mashqlar, jumladan, harbiychasiga teng qadam tashlash, gantelni yuqoriga uch marta ko'tarish, brusda oson va yengil mashqlarni bajarish va gimnastika anjomlari bilan oddiy mashqlarni bajarishni o'rgandilar. 5-guruhda esa oddiy va sodda gimnastik mashqlar, harbiychasiga teng qadam tashlash, brusda mashqlar qilish, pog'onalarga chiqish, langarcho'p bilan

mashq, arqonga osilish va halqalarda mashqlar qilish bilan shug'ullandilar. 6-guruhda gimnastika mashqlari bilan dastlabki tanishuv, to'p bilan o'yinlar, yog'ochga tirmashib chiqish, zinalardan ko'tarilish kabi mashqlarni bajarishga o'rgatildi.

1-2-3- guruhlarda yonma-yon qator bo'lib yurish va vzvod ta'limini olish, rotaning eng oddiy va eng oson saflanishida qatnashishdi. Eng yaxshi va chaqqon o'quvchilar vzvod boshlig'i yoki qaysidir bo'limning boshlig'i vazifasini bajarishdi.

4-5-guruhlarda bir qator bo'lib, yonma-yon bo'lib yurish, vzvod bilan birga mashqlar qilish va o'rganish amalga oshirildi. 6-guruhda saf bilan tanishuv bo'ldi. Bu tayyorlov sinfining o'quvchilari bir qator bo'lib va yonma-yon yurishni o'z ko'zlari bilan ko'rdilar.

Safda yurish tartibini o'rganish piyodalar xizmati ustavi asosida olib borildi. So'ngra esa gorodki - tuzilgan chillaklarni urib chiqarish o'yini, to'p bilan har xil o'yinlar, uchirish, bir-birini ustidan sakrash, yog'ochlarda yurish kabi o'yinlarni bolalar o'ynaydilar.

O'tkazilgan gimnastika mashg'ulotlar bo'yicha o'quvchilar bilimi baholanib, 1-guruhda 228 o'quvchi "yaxshi", 2-guruhda 120 o'quvchi "qoniqarli", 3-guruhda 12 nafar o'quvchi "qoniqarsiz" baho olib, jami 360 nafar o'quvchilarning bilimi va mahorati baholandi.

Tayyorlov sinfidan va 2-3-sinflardan 1 nafardan, 8-sinfda 2 nafar o'quvchi barcha gimnastika mashg'ulotlaridan vrachning tekshiruvi va qarori asosida ozod qilingan. Bundan tashqari, vrachning maslahati bilan 15 nafar o'quvchi vaqtincha mashqlarda qatnashmagan.

Gimnastika mashqlarini yaxshi olib borishga havo sovuq bo'lgan paytlarda issiq joy yoki binoning yo'qligi ham katta salbiy ta'sir etgan. Shu sababli gimnastika mashg'ulotlarini rejadagidan ko'ra ancha qisqartirishga, havo isib, hovlida o'tkazish mumkin bo'lgan vaqtgacha kutib turishga to'g'ri kelgan.

Gimnastika mashg'ulotlarini qiziqarli va sifatli o'tishida gimnaziyada qurilgan gimnastika maydonining o'rni va ahamiyati juda katta bo'ldi. Oqibatda o'quvchilar gimnastika mashqlariga ishtiyoq bilan qatnashib, jismonan baquvvat bo'lib, sog'liklarini ancha mustahkamladilar. Bu holat gimnastika anjomlari va turli snaryadlar bilan mashq qiladigan o'quvchilarda yaqqol ko'rindi va ular yengil harakat qiluvchi va chaqqon o'quvchilarga aylandilar.

Xulosa

Shunday qilib, Rossiya imperiyasi Xalq maorifi vazirligining bir qancha rasmiy hujjatlarida ta'lim muassasalarida gimnastika mashqlari o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish, sog'lomlashtirish va hayot faoliyatiga tayyorlashdan iborat ekanligi takror va takror ta'kidlandi. O'sha davrdagi davlatning ta'lim-tarbiya tashkilotlari jismoniy mashqlarning o'quvchilar salomatligini mustahkamlashdagi ahamiyatini juda yaxshi tushunib yetganlar va buni mazkur maqoladagi misollarda ham ko'rish mumkin. Zero, sport mashg'ulotlari uyda ertalabki badantarbiya, gimnaziyada harbiy saf va jismoniy mashqlar, sport musobaqalari va bayramlar hamda dam olish kunlari va ta'tillarda tashkil etiladigan sayr-sayohat va sport tadbirlaridan iborat edi.

Maqoladagi sport ta'limi jarayonlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, gimnastika mashqlari o'quvchilarda hayotiy zarur harakatlar - yurish, yugurish hamda sakrash va uloqtirish, tirmashib chiqish mashqlarini bajarish, harakat, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya vositalari bo'lib hisoblangan jismoniy mashqlar va tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari hamda gigiyenik vositalar yordamida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ladi va organizm sog'lomlashadi, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin.

Issues of physical development of students in russian educational institutions of Turkestan

Khasanov Abdurahim¹

¹Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Culture and Sports, Tashkent city, Republic of Uzbekistan.

Abstract. The article examines the state of physical culture and sports in Russian-language schools in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, the measures taken to address the physical development of students, the role and significance of physical culture and sports in the education and upbringing of student youth, as well as their social essence.

Keywords: physical education, sports, education and upbringing, intellectual education, sports equipment, spiritual education, excursion, folk games.

Вопросы физического развития учащихся в русских учебных заведениях Туркестана

Хасанов Абдурахим¹

¹Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту, город Ташкент, Республика Узбекистан.

Аннотация. В статье рассматривается состояние физической культуры и спорта в русскоязычных школах Туркестана в конце XIX и начале XX веков, меры, принятые по вопросам физического развития учащихся, роль и значение физической культуры и спорта в образовании и воспитании учащейся молодежи, а также их социальная сущность.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, образование и воспитание, умственное воспитание, спортивный инвентарь, духовное воспитание, экскурсия, народные игры.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akramov A.K. O'zbekistonda jismoniy vadaniyat va sport tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1997. 35-bet.
2. Алимов Г.М. Становление и развитие концепций физического воспитания в России XVIII - начала XX вв. Изд-во Орского гуман-ного технологического ин-та, 2015. стр.43.
3. Алексеев С.В. История регулирования физической культуры и спорта в российской империи в период XVIII - начале XX вв. «Право и государство» 2016. - № 5, стр. 98.
4. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. М., "Наука", 1960, 63-65-бетлар.
5. Jalilova L.A. Jismoniy tarbiya tarixi. Toshkent, 2012, 112-115-betlar.
6. Xodjaev P. O'zbekistonda jismoniy tarbiya tarixi. Toshkent, 1997, 62-65-betlar.
7. O'zbekiston milliy arxivi, I-17-f., 1-ro'yhat, 15968-hujjat, 6-varoq.
8. O'zbekiston milliy arxivi, I-47-f., 1-ro'yhat, 1315- hujjat. 38-38ob-varoq
9. O'zbekiston milliy arxivi, I-47-f., 1-ro'yhat, 4982- hujjat. 226-varoq.
10. O'zbekiston milliy arxivi, I-47-fond, 1-yozuv, 658-hujjat, 17-17ob-varoqlar.
11. O'zbekiston milliy arxivi, I-1- fond, 27-yozuv, 1589-hujjat, 16ob-varoq.